

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

5.2020

научно-методический журнал
Издаётся с 2001 года

Urganch – 2020

Ёки ғазалнинг

Дафъ эта олмас садоим равгани бодому гул –

Ким, манга ул орази гул, чашми бодом орзу.

байти тошбосма матнида

Равгани бодому гул эрмас садоим дафъи,

Ким менга ул орази гул, чашми бодом орзу –

тарзида берилган.¹ Бу каби тафовутлар тошбосма матн учун асос бўлган манба шоир Комил девонинг илк нусхаларидан бири бўлиши мумкин, деган хulosага олиб келади. Қўлёзмадаги ғазал матни эса кейинчалик муаллиф томонидан таҳрир қилинган нусхадан олинган.

Айрим ғазаллар матни тошбосмада тўғри берилгани ҳолда қўлёзмада нуксонли экани кузатилади. Кўйида ғазалнинг тошбосма манбадаги матни тўлиқ келтирилади:

Нечук шаҳло қўзу не навъ рухсори мусаффодур –

Ки, кўргач дилраболар зарра ёнглиг ношикибодур.

Сабоҳат гулишанида оразингдур лолаи аҳмар,

Фасоҳат баҳрида рангин каломинг дурри яктодур.

Раводурму буқим, маҳрум этиб бечора булбулни,

Висолинг гулишани зогу заган хайлига маъводур.

Алифдек туз қаду нундек қошинг меҳробидин ҳар дам.

Тафаккур бирла гаҳ нундур қадим, гаҳ ўйлаким ёдур.

Лаби жонпарвару жоми висолинг ҳажридин ўлдим,

Ҳаётим боиси не оби ҳайвон, не Масиҳодур.

Десам ҳуснунгни гар хуршиддин аҳсан, тонг эрмастур,

Не анда лаъли жонбахшу, не қотил чаими пайдодур.

Ёна бир қатла кўргузгил бу маҳжурингга дийдоринг –

Ки, ул ой ҳажридин ҳар кеча нолам чархфарсадур.

Нисори роҳинг айларга хиром этсанг мақомимга,

Сиришким баҳри ичра дур била гавҳар муҳайёдур.

Жамолинг партавидан зарраи гар етмаса, эй маҳ,

Мунаввар қилгучи кулбамни не моҳу, не байзодур.

Илоҳи, тут они доим жаҳон осибидин маҳфуз,

Қади нахлики, кўнглум гулишанида сарви раънодур.

Нечук рашик ўтига ўртанимасун Комил жанобингда,

Бори ноқислар ондин рутбау иззатда аълодур.²

Қўлёзмада ҳам, у асосида амалга оширилган нашрда ҳам ғазалдаги саккизинчи байт мақтъидан олдин берилган. Бу ноғрин таҳрир. Чунки ғазал матни Насриддинжон исмига мувашшаҳ килинган. Мувашшаҳ талабига кўра, ғазалдаги ток мисраларнинг бош ҳарфларидан ушбу исмни келиб чиқади. Асар шакли билан боғлиқ бўлган санъат қўллангани ушбу ғазал муаллиф томонидан эмас, балки котиб ёки ноширнинг таҳрири билан ўзгартирилган, деган хulosага олиб келади.

Кузатишларимиз шуни кўрсатадики, Комил Хоразмий поэтик мероси ҳанузга қадар тўлақонли ўрганилган эмас. Мавжуд нашрларга киритилган шеърлар ҳам маълум нуксонлардан холи эмас. Шоир лирик мёроси ўрин олган қўлёзма ва тошбосма манбаларни киёсий ўрганиш асосида девонинг мукаммал илмий-танқидий матнини яратиш ҳамда нашр эттириш матншунослик олдида турган долзарб вазифалардандир.

Ergashova Muhayyo (f.f.n., dotsent), Mamatqulova Muazzam (QDPI magistranti)

A.ORIPOVNING METAFORA VA ANTITEZADAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslar metaforalarning til va nutq birligi sifatida lingvistik hamda badiiy metaforalarga bo'lib o'rGANish tomonidan hamfikr bo'lsalar-da, metaforalarning tabiatini tadqiq etishda o'zaro farqli xulosalarga kelganligi, shoirning antitezadan foydalanish mahorati ham yoritilgan.

¹ Девони Мавлоно Комил майдан таворихи шоҳон Хоразм. Тошбосма. ЎзРФА Шарқшунослик институти фонди, И nv. №237, 76-бет.

² Шу манба. 33-бет.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению метафоры. Как известно, лингвисты делят метафоры на лингвистические метафоры и художественные метафоры. Они имеют схожие мнения по данному вопросу. Данная статья изучает различия во взглядах при исследовании природы метафор. Также раскрыта способность поэта использовать антитезу.

Annotation. This article is devoted to the study of metaphors as a linguistic unit and their division into linguistic and literary metaphors. Linguists have the same opinion on this division into linguistic and literary metaphors, but this article singles out their differences. The poet's ability to use antithesis is also shown.

Kalit so'zlar: metafora, antiteza, o'xshatish, nutq birligi, lingvistik tabiat, sistemaviy tabiat, lingvistik metaforalar, pragmatik axborot, semantik maydon.

Ключевые слова: метафора, антитеза, сравнение, речевые единицы, лингвистическая природа, лингвистические метафоры, pragматические информации, метафорические вторичные значения, семантическое поле.

Key words: metaphor, learning, speech unit, linguistic nature, systematic nature, linguistic metaphors, pragmatic information, metaphorical secondary meaning, semantic field, antithesis.

Hayotdagi har bir fan jamiyat rivoji bilan bog'liq holda taraqqiyotda ekan, tilshunoslik ham turli davrlarda rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgani bizga ma'lum. Til jamiyatda yashaydi va jamiyat bilan teng o'sishda, rivojlanishda bo'ladidi, zero, tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til mavjud emas. Kishilik jamiyatida aloqa-aratashuvni ta'minlovchi muhim vosita hisoblangan til haqidagi talqinlar bugungi kunda rivojangan va murakkablashgan. Til hodisalarini tavsiflashga antropo Nikolay Yondashuv rivojlanishi munosabati bilan tilning fonetik qurilishini tadqiq etish faollashdi. She'riyat qadimda, dastlab, eshitishga asoslanib yaratilgan, shuning uchun badiiy asar tilining qabul qilinishi vizual emas, jonli intonatsion jarangi bilan eshitilishi kerak. Bu esa axborotning estetik jihatini kuchaytiradi, xabar beruvchining hissiy munosabatini aks ettiradi, tinglovchiga shu hissiy ta'sir yetkaziladi.

Tilshunoslik bilan adabiyot ham bir-biri bilan uzviy bog'liq fanlar hisoblanadi. Ularning bir-biriga material beruvchi soha ekanligi ma'lum. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikning aloqadorligi haqidagi qarashlar, umuman, badiiy matn lingvistikasi masalasi ancha qadimda Arastu, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino,¹ Alisher Navoiy va boshqa yetuk qomusiy olimlarning asarlarida yoritilgan.

Bizningcha, A.Oripovning biz bilgan ulkan so'z san'atkori bo'lib yetishishida tug'ma iste'dodi bilan birga bolaligi o'tgan joylar tabiatining ham ulkan xizmati bor. Sho'r tarjimayi holida shunday deb yozadi: "...bahor paytlarida bu yerlarga yog'in ko'p tushar, Qo'ng'irtov etaklari ming xil o't-o'lan, chuchmoma-yu qizg'aldoqlar bilan, quyonto'pig'-u ismalоq bilan, karragu hazori isfand bilan, qo'zigullar bilan qoplanar, atrof-tevarak jannatiy bir manzara kasb etardi ...O'sha Qo'ng'irtovda bizning bolalik yillarimiz o'tgan. Bahor kelganda havoni o't-o'lanning yoqimli xushbo'y hidi qoplar, sharros yomg'ir quyganda biz tog' cho'qqisi unguridagi kichik-kichik g'orlarga bekinib olardik. O'sha yuksaklikdan shimol taraf-dagi yam-yashil bepoyon kengliklarni tomosha qilar edim, to'yib-to'yib nafas olardim. Ayniqsa, bu joylarda janub kechalari, yulduzli osmon nihoyatda go'zal bo'lar edi. Tim qora osmonda qo'l cho'zsang yetgudek ulkan-ulkan novvotrang yulduzlar charaqlab turadi. Hayotimda bunday go'zal manzaralarni keyin uchrata olmadim".

Shoir xotirasida tiklanayotgan hayrat uning ko'plab she'rlaridan, ayniqsa, "Bahor", "Qarshi qo'shi-g'i", "Sen bahorni sog'in madingmi?" kabi mashhur she'rlaridan o'quvchilarga yaxshi tanish. Ya'ni, aytmoqchimizki, tabiatga mehr, uning go'zalligi oldida zavq va hayratga cho'ma olish shoirga bolalikdan xos bo'lgan.

Murg'ak qalbning tabiat bilan yakkama-yakka muloqoti xudo bergen iste'dodni kamol toptirgan: san'atkorona nigoh va didni charxlagan, kuzatuvchanlik, ta'sirlana olish, hissiy mushohada qobillik kabi muhim sifatlarni rivojlantirgan. Atrofidagi o'xshashsiz tabiiy go'zallikni ko'rolganidan kelgan bolalarcha samimiy hayrat esa tasavvur va taxayyulga qanot bergen, ya'ni A.Oripov bolaligidanoq tabiat bilan uyg'unlikda, muttasil muloqotda yashagan. Demak, biz poeziyada ichki va tashqi olamlar bir-biriga qarshi qo'yiladi hamda mudom bir-biriga o'tib turadi, degan qarashdan kelib chiqamizmi, yo poeziyaning asosida o'xshashlik prinsipi yotadi, degan qarashdanmi, baribir, shoirda obratzli, metaforik fikrlashning ri-

¹Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Тошкент, "Янги аср авлоди", 2004.

Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Тошкент, Абдулла Кодирий номидаги Халқ мероси нашириёти, 1993; Абу Али ибн Сино. Фонетика ҳакида рисола. Тошкент, "Ўзбекистон", 1979.

vojlanishi uchun zarur muhit mavjud bo‘lgan. Suuning uchun ham A.Oripovning ilk mashqlaridayoq tabiat obrazli ifoda uchun boy manba bo‘lib xizmat qilganini ko‘rish mumkin.

O‘n etti yoshida yozgan “Yulduzlar” she’rini A.Oripov quyidagi misralar bilan boshlaydi:

*Apred osmoniga ko‘zingni tikib,
Qanday soz tunlarni kuzatib qolsang.
Ko‘k sari xayollar eltsa o‘zingni
Qanday soz yulduzlar ichra yo‘qolsang.*

Aprel tongining shukuhi xayolga qanot beradi, bolaligida tabiat bilan uyg‘unlikda yashagan yosh shoir “yulduzlar ichra yo‘qolishni”, ona tabiat bag‘riga singib ketishni orzu qiladi. E’tiborli tomoni shuki, shoir bu orzusini shunchaki izhor etayotgani yo‘q, aksincha, shunday orzu qalbini chulg‘agan lirik holat, o‘sha damdagi kayfiyat his qilinadigan tarzda izhor qilyapti. Buning asosi metaforik tafakkur bo‘lib, shoir ko‘ngildagi kayfiyatni tabiat bilan muqoyasada ifoda etishga intilmoqda. Kayfiyat shuki, lirik qahramon o‘zini bir dam “yulduzlar ichida yulduz” his qiladi, shu onlarda “shirin tuyg‘ular zavqini qitiqlaydi”. Yana bir orzu esa mana bu satrlarda metaforik ifoda etiladi:

*Milt-milt yonayotgan jajji dil so‘zing
Yulduzlar chamani ichra sho‘x bo‘ylar.*

Mazkur misralarda hademay maktabni tamomlab, shoir bo‘lish umidida poytaxtga yo‘l soladigan yosh iste’dodning o‘ziga ishonchi barq urib turganini sezish qiyin emas. Bizni ko‘proq ifoda yo‘sini qiziqtirgani uchun shu ishonch qanday aks ettirilganiga e’tiborni qaratamiz. Demak, parchaga diqqat qilsak, unda bir qator metaforalar ishlataliganini ko‘ramiz: 1) milt-milt yonayotgan dil so‘zi; 2) jajji so‘z; 3) yulduzlar chamani; 4) so‘z sho‘x bo‘ylar.

Shu metaforalarning matnda birikuvi yosh shoir dilini chulg‘agan orzularni, ishonchni ifoda etadi. Ya’ni, uning jajji bo‘lsa ham, aytarga o‘z “dil so‘zi” bor, bu so‘z mitti yulduz kabi “milt-milt” yonadi va “yulduzlar chamani ichra sho‘x bo‘ylaydi”. Xuddi shu metaforalar matnda birikkan holda shoir bo‘lishni diliga tugib, katta hayotga qadam qo‘yishga chog‘langan o‘smir orzu-niyatlarini ifoda etadi. Mana bu misralarda esa bu orzu-niyatlar balandroq pardada ifodalanadi:

*Deyman: osmonlarning hiloli bo‘lsam,
Hulkar va Zuhro‘si bo‘lgim keladi.
Shu go‘zal o‘lkamda kamolga to‘lsam,
Porloq yulduzlarday kulgim keladi.*

Diqqat qilinsa, she’rda ko‘chim darajasidagi metaforalar obraz darajasidagi metaforani yuzaga chiqargani va yulduzli osmon obrazi endi metaforik tarzda she’riyat ma’nosini anglata boshlaganini sezish qiyin emas.

Tilda zid ma’noli so‘zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi ta’sirchanligini ta’minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan beri tildagi bu ifoda imkoniyatlaridan keng foydalanib kelinadi. Zid ma’noli so‘zlardan foydalanish badiiy adabiyotda tazod san’atini vujudga keltiradi. Bu san’at yana “mutobaqa”, “tiboq”, “muttazod”, “tatbiq”, “ittizod” deb ham ataladi. Yevropa filologik an’anasida bu san’at antiteza deb ataladi. A.Oripov o‘z ijodida tazod, qarshilantirish, zidlantirish san’atining yuksak namunalarini yaratgan. Badiiy adabiyot tildagi antiteza usuli bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma’nolarni beradigan so‘zlarni, iboralarini yonma-yon qo‘llash orqali obraz-lilikni keltirib chiqarishga asoslangandir. Sheriyatdan antiteza badiiy nutqning ifodaliligi, ta’sirchanligini taminlovchi imkoniyatdir. Chunki antiteza orqali qahramon ruhiyatidagi kontrastlik bo‘rttirib tasvirlanadi.¹

A.Oripov “Hakim va ajal“ dostonida antitezadan unumli foydalangan. Buni quyidagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkin:

*O‘ng bilan tush, vujud va ruh, tafakkur borliq
Uning zehni idrokida edi hukmron
Bu dunyoda inson bilan ne bo‘lsa bog‘liq,
Chulg‘ar edi xayolini mo‘jisimon.*

Keltirilgan misralarda o‘ng-tush, vujud-uh so‘zlari orqali antiteza hosil qilingan. Vujud – ruh so‘zlari orqali Abu Ali ibn Sino insonning bu dunyoga nima uchun kelishi, bu dunyoda muhabbat va o‘limdan boshqa barcha dardlarning davosini topganligi haqidagi o‘ylari ham ifodalagan.

Tingla Mirzo, manä buni deydilar qiyos

¹ Йулдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлил асослари. Т., 2007, 55-бет.

*Bu – Buxoro malikasin yurak ifshosi:
Sen – tubansan, u-chi yuksak, sen – hok, u – quyosh.
Sen – gadosan, u – tafakkur mulkin podshosi.¹*

Misralardagi tuban – yuksak, gado – podsho antonimlari orqali antiteza hosil qilingan. Hok – quyosh so‘zлari orqali shartli antiteza hosil qilingan. Bu misralar orqali shoirning Mirzo va Abu Ali ibn Sinoga bo‘lgan munosabati yaqqol ifodalangan. A.Oripovning “Hakim va ajal” dostonida o‘quvchining mushohada yuritishi, voqelik haqida kuchli taassurot uyg‘otish maqsadida qo‘llangan zid ma’noli so‘zlar vositasida qarama-qarshi holat, ruhiy kengliklar ochib beriladi.

A.Oripov uslubining o‘ziga xos belgilaridan biri xalq jonli tiliga yaqinlidir. Jonli tilga yaqin degan esa xalq turmushi bilan yaqin degani bo‘ladi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, ishonch-e‘tiqodollarini chuqur bilish shoir qo‘llagan metafora va antitezalarning xalqona bo‘lishini ta’minlaydi, ularga sodda go‘zallik, samimiyat baxsh etadi.

Киличева Мехринисо Ражабовна (БухДУ изланувчиси, mekhrishafate@mail.ru)
ЖАХОН АДАБИЁТИДА ЁЛГИЗЛИК МОТИВИ ТАЛҚИНИ

Аннотация. Мақолада жаҳон адабиётида ёлғизлик мотивининг бадиий талқини хусусида фикр юритилган. Ёлғизлик мотивининг ижтимоий-психологик асослари таҳлилга тортмилган.

Аннотация. В статье обсуждается художественная интерпретация мотива одиночества в мировой литературе. Анализируется социально-психологическая основа одиночества.

Annotation. The article discusses the artistic interpretation of the motive of loneliness in the world literature. The socio-psychological basis of loneliness is analyzed.

Калим сўзлар: ёлғизлик, мотив, сарлавҳа, психологик ҳолат, қаҳрамон, монолог, роман, қисса, ҳикоя, фоэсиа.

Ключевые слова: одиночество, мотив, заглавие, психологическое состояние, персонаж, монолог, роман, история, трагедия.

Key words: loneliness, motive, title, psychological state, character, monologue, novel, story, tragedy.

Ёлғизликни илмий жиҳатдан ўрганилиши хали янги, бироқ ёлғизлик ҳар доим адабиёт, фалсафа ва санъатда асосий мавзу бўлиб келган.² Жаҳон адабиётида ёлғизлик мотиви муҳим ўрин эгаллаган асарлар жуда кўп. Ёлғизлик билан курашадиган образларнинг яратилишига сабаб ўраб турган ижтимоий ҳаётдан, одамлардан узилиб колиш, ажратилиш, яккаланиш ҳисларини ҳакикий ҳаётда бошдан кечирадиган кўплаб одамлар борлиги билан изоҳланади. Кўпчилик олимлар ёлғизликни XX аср билан, аникроғи, модернистик оқим билан боғлади.

Аксарият психологлар ва социологлар ёлғизликни атроф-муҳит таъсири натижаси деб билишади. Бен Мижускович бунга сал бошқачароқ ёндашиб, экзистенциалистлар сингари, ёлғизликни болалик ва шароит натижасида эмас, балки одамларнинг асл табиати деб билади. Унинг сўзларига кўра, ёлғизлик ижтимоий ислоҳот билан даволанадиган касаллик эмас, бу инсоннинг қочиб бўлмас ҳолатидир.³

Инсон турли сабаблар билан ёлғизликка мубтало бўлади. Бунга баъзан кишининг одамовилиги, атрофдагиларга нисбатан бефарқ, меҳрисиз, кўпол ва такаббурлиги сабаб бўлса, баъзан бирор бир табиий оғат ёки зўравонлик, жамиятдан норозилик, бошқаларга ҳasad қилиш, қотилликка кўл уриш сингарилар ҳам уни ёлғизликка гирифтор этиши мумкин. Масалан, Даниэль Дефонинг “Робинзон Крузо” асарида бош қаҳрамоннинг денгиз тӯфони сабаб кимсасиз оролга тушиб қолиши ва у ерда бошидан кечирганлари тасвирланган. Аммо ёлғизлик, ватанидан ва яқинларидан жудолик Робинзон Круzonинг иродасини синдира олмайди, қаҳрамоннинг айнан ёлғизликни енгигиб ўтиши ўқувчиларни мафтун этади. “Робинзон Крузо” руҳий барқамолликнинг энг ишончли воситалари – ёлғизлик, табиат билан мулокотда бўлиш, меҳнат ва оддий ҳаёт тарзи ҳақида.⁴ Жан Жак Руссо айтганидай, “Дефонинг китоби – табиий тарбия борасида энг муваффақиятли асар. Оролда-

¹ Орипов А. Танланган асарлар. I-жилд, Т., 2000, 3-бет.

² Karen Christensen and David Levinson in the Encyclopedia of Community: From the Village to the Virtual World. Sage Publications, 2003, p. 130.

³ Mijuskovic B.L. Loneliness in philosophy, psychology, and literature. Assen: Van Gorcum, 1979, p.117.

⁴ Биби Робиа Сайдова. Ақл ва рух бахси. 2018, 30-бет.

Норбоева Сарвиноз. Талабалар маънавий компетентлигини ривожлантиришга доир тарбиявий тадбирларни лойихалаш ва режалаштириш.....	99
Ахмедов Олимжон Турсунбоеевич. Maxsus хизматлар учун мутахассис ходимларни тайёрлашга замон та- лаблари асосида ёндашув.....	102
Atajanova Rabbina Raximovna. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tasviriy san’at fanidan kreativ fikrashlarini shakllantirishda ish daftarning ahamiyati.....	105
Шарипова Диляра Джуманиязовна, Рузметова Новвали Вахабджановна. Роль социокультурной компе- тентции в профессиональной подготовке студентов.....	107
Abdurahmanova Hilola. Rus tili o‘qituvchisining zamona viy ta’lim muhitidagi o‘rnı.....	110
Тангриберганова Гулора Адамовна. Фактор непрерывности в истории обучения иностранным языкам.....	112
Ташпулатова Сабоҳат Ақбаровна, Джураева Ойша Хайитовна. Роль зеленых биологических картинок в учебном процессе.....	115

ILMIY AXBOROT

Маликов Бехзодjon Қуролович. Давлат хизматини ташкил этишнинг Жанубий Корея ва Сингапур тажри- баси.....	118
Уралова Ойсулув. “Оила” тушунчаси ва унинг халқ мақолларидағи ифодаси.....	121
Наврузов Сапарбой, Сайдова Санобар. Педагог Сухомлинскийнинг “Шодлик” мактаби.....	125
Ibaydullayev Temur Gaybullayevich. O‘zbek libosi tarixining rivojlanish bosqichlari.....	127
Ахатов Лутфилло Караматиллоевич. Жомий илмий мероси талқинида ёшлар тарбияси.....	131
Яқубов Фазлиддин Мухитдинович. Спорт қадриятлари – жисмоний тарбия ва спорт мутахассислари та- факкур тарзини ривожлантириш услугиси сифатида.....	133
Nafasov Doniyor Shernafasovich. Talabalar turistik faoliyatining didaktik tamoyillari va tarbiyaviy-rivojlaniruv- chi vazifalari.....	136
Анорбоева Ирода Ориповна, Эсонбоева Назира Муродбек қизи. Француз ва ўзбек тилларида тақорий номинация –изчиллик категорияси бирлиги сифатида.....	139
Burleva Umida Abdumuminovna. Diskurs analiz tarixi.....	142
Исакова Гузалхон Нематовна. Ёлғон тушунчасининг образли ифодаланишида канотли сўзларнинг ўр- ни.....	144
Джафарова Дилдора Илхамовна, Курбонова Гулсара Содиковна. Француз ва ўзбек тилларида мавжуд фразеологик бирликларнинг тарихий воеалар билан боғликлиги.....	147
Xudoyberganov Ravshan Yusupovich, Sultonova Dildora Azamat qizi. Oshiq Erkin ijodida noadabiy qat- lam.....	149
Ochilova Nilufar O‘imasovna. O‘zbek adabiyotida “Ot” obrazi yaratilgan asarlarga xos xususiyatlar.....	152
Облокулова Мастира Мизробовна. Байроннинг “Stanzas for music” шеъри услубий хусусиятлари.....	154
Сафарова Зилола Толибовна. Ҳудойберди Тұхтабоев ижодида етим бола образи ички кечинмаларининг тахлили.....	157
Нуридинов Шаҳобиддин Бабаярович. Комил Хоразмий “Девон”и манбаларининг таҳлилига доир айрим мулоҳазалар.....	162
Ergashova Muhayyo, Mashaqulova Muazzam. A.Oriprovning metafora va antitezadan foydalananish mahorati.....	165
Киличева Мехринисо Ражабовна. Жаҳон адабиётида ёлғизлик мотиви талқини.....	168
Masharipova Yulduz Otaxanova. Targima amaliyotida leksik transformatsiyalarning ahamiyati.....	170
Махмараимова Шоҳиста Тұхташевна. Метафора как когнитивная модель и эмоциональный феномен авторской картины мира.....	173
Бобокалонов Пулатшоҳ Рамазонович. Значения канонических слов-предложений в духе толерантнос- ти.....	177
Тян Наталья Викторовна. О методах описания скифо-европейских лексических изоглосс В.И.Абаевым.....	180
Рузметов Сурожбек Аллаберганович, Джумабаева Зебо Давронбековна. Об англизмах в русском и уз- бекском языках.....	183
Мирсагатова Дилором. Этимология продуктивных существительных и способы их образования в английс- ком языке.....	186
Татьяна Анатольевна Бушуй. Сфера туризма как одна из ведущих проблем взаимосвязи языка и на- ции.....	191
Masharipova Leninza Axmedjanovna, Maylonova Hurshida Hudayberganovna, Radjapova Nafisa Muminjanovna. The Notion of Changeability and How the Meanings Can Be Substituted in a Language.....	195